

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

Nocturne No. 20 in C Sharp Minor, Op. posth

Frédéric François Chopin

Vincent

**FRIDERIK SHOPEN**  
(1810-1849)**NOYABR**  
**№46**

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
25-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-25**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Qoryog'diyeva Hamida Fatulloyevna</b> BUXORO VILOYATI LANDSHAFTLARIDA BARPO QILINGAN “YASHIL BELBOG”.....	7
---	---



## ГЕОГРАФИЯ

### BUXORO VILOYATI LANDSHAFTLARIDA BARPO QILINGAN “YASHIL BELBOG”

**Qoryog’diyeva Hamida Fatulloyevna**

Buxoro viloyati Jondor tumani  
29-umumi o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisi

Telefon: +998941258200

yulduzrazzoqova@267gmail.com

**Annotatsiya:** Buxoro viloyati landshaftlarida shamol eroziyasiga qarshi kurashda ixota o’rmonzorlarini samarali tashkil qilishning geoekologik asoslarini qisman bo’lsada izohi keltirilgan. Bu tezis bu mavzuni kelajakda keng yoritishga imkon yaratadi degan umiddaman.

**Kalit so’zlar:** Buxoroning “Yashil belbog’i”, cho’l, Vardonze, Poykant, Varaxsha, chang-to’zonli garmsel, landshaft, ixotazor, voha, ko’chma qumlar.

Barcha fanlar qatori geografiya fani ham insonning kundalik hayotida muhim o’rin tutmog’i zarur. Buning uchun eng avvalo tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va Buxoro viloyati landshaftlarini to’g’ri tashkil qilishga asosiy e’tiborni qaratish kerak.

O’zbekiston deb atalmish jonajon o’lkamiz O’rta Osiyo mintaqasining o’rtasida joylashganligi, cho’l va chalacho’llar zonasiga taalluqli ekanligi, keskin kontinental quruq iqlimning mavjudligi, bu hududning iqlimi sharoti birmuncha murakkab ekanligidan dalolat beradi. Zero, har bir maskan Yer shari tabiatining ajralmas bo’lagi hisoblansada, uning har bir bo’lagi o’ziga xos tabiiy xususiyatlarga ega. Shunday ekan, iqlimi sharoitdan kelib chiqib, har bir hududda tabiiy resurslarning salohiyatidan ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy sohada samarali foydalanish bugungi kunning asosiy muammosidir.

Buxoro viloyati hududi O’zbekiston Respublikasining janubi-g’arbida, Zarafshon daryosining quyi qismida, janubi-g’arbiy Qizilqum deb ataladigan cho’l maskanida joylashgan. U shimoli-g’arb tomonidan qisqa masofada Xorazm viloyati va Qoraqalpog’iston Respublikasi zamini bilan tutash, shimol va sharq tomonlardan esa, katta masofada Navoiy viloyati “halqasi” bilan o’ralgan bo’lib, janubi-sharqiylaridan Qashqadaryoning Qarnob, Qarshi cho’llariga yondoshdir. Viloyatning janubi-g’arbiy chegaralari juda katta masofada Turkmaniston davlati bilan bog’lanadi. Bu yerda chegara Amudaryoga o’ng tomonidan yondashib boradi va Doyaxotin-Qizilrabot oralig’ida (80 km.) daryo o’zani bo’ylab o’tadi.

Viloyat Respublikamizning aynan quruq iqlimli zonasida joylashganligi (viloyat hududining 70 % dan ortiqroq qismi cho’l va chalacho’l zonasiga kiradi), suv resurslarining cheklanganligi, viloyat rel’yefining asosan tekislik qismiga mansubligi, uning iqlimi sharoitlarini belgilaydi. Shunday ekan, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan, hududda mavjud boyliklardan samarali tejab-tergab foydalanishni taqozo etadi.

Buxoro viloyati tabiatining geoekologik xususiyatlari eng avvalo bu maskanning cho’l zonasasi va Zarafshon daryosining del’tasida joylashganligi, o’zga yurtlardan (tog’lardan) keladigan daryo suvlari sharofati tufayli insonlar qudrati bilan yaratilgan vohalar, yirik suv inshootlarining mujassamligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham quruq iqlim sharoitida cho’l hududini shamollarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Issiq iqlimli o’lkada chang-to’zonli garmsel viloyat aholisi boshiga katta zarar keltiradi.

Qadimda Buxoro viloyatining Vardonze, Poykant, Varaxsha kabi obod shaharlari ko’chma qumlar ostiga qolib ketganligi haqiqatdir. Birgina Vardonze shaharchasi Shofirkon tumanida joylashgan obod shaharcha Buxoro viloyatini Qozog’iston va Sibir bilan bog’laydigan asosiy hudud hisoblangan. Akademik, Ya. G’ulomovning arxeologik, etnografik kuzatishlari



Vardonzening XIX asr oxirigacha obod, savdo hunarmandchlik shaharchasi bo'lib qolganligini ko'rsatadi. Vardonze shahri keyinchalik Qizilqum sahrosining qumli to'fonlari qurbaniga aylangan. XX asr boshlarigacha Buxoro viloyatining shimol va shimoli-g'arb tomonlaridan kirib kelgan bu ko'chma qumlar viloyat aholisining boshiga katta tashvish yog'dirgan. Qanchadan-qancha obod yerlar, aholi manzilgohlari, qishloq xo'jalik ekinlari qumli barxanlar ostida qolib ketgan. Shu vaqtidan boshlab, Buxoro viloyatida shamol eroziyasini o'rganish va unga qarshi kurash jarayoni boshlangan. Faqatgina 1941 yilga kelib, bu falokatga uzil-kesil barham beriladi va bu ko'chma qumlar o'rnida himoya vazifasini bajaruvchi daraxtzorlardan iborat “Buxoroning yashil belbog'i” barpo qilinadi. Hozirgi kunga qadar bu muammo turli davrlarda atroficha tahlil qilinib, o'rganib kelinmoqda.

Viloyatda voha bilan cho'l o'rtaida uzunligi 120 km., kengligi 1-3 km. bo'lgan, saksovul, cherkez, qandim, yulg'unlardan iborat “Buxoroning yashil belbog'i” buniyod etilib, vohani asosan, shamol eroziyasidan himoya qilish yo'lga qo'yilgan edi. Lekin, hozirgi kunga kelib, bu “belbog”ning aksariyat qismi turli maqsadlar uchun o'zlashtirilib, bu maydon qisqarib ketgan. Natijada shamollar hech qanday to'siqlarsiz kirib kelaverib, viloyat hududida turli xil chang-to'ztonni, turli xil kasallik mikroblarini va hatto Orol dengizi qurigan qismidan ko'tarilayotgan zararli tuzlarni ham o'zi bilan birga olib kelmoqda. Ana shunday bir vaziyatda bu muammoni hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, landshaftli-ekologik usul yordamida o'rganish asosiy vazifa bo'lib qoldi.

Landshaftlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Landshaft tashqi ko'rinishi va ichki mazmuniga ko'ra sifat jihatdan farqlanib turadigan kichik hududlar, ya'ni resurslar majmuasidir. Demak, landshaftlar tabiiy resurslarning hududiy majmui ekan, undagi resurslarni umumiyligi (integral) baholashga hojat yo'q. Chunki resurslarga bo'lgan talab xo'jalik yo'nalishlari bo'yicha belgilanadi.

Shunday ekan, Buxoro viloyati landshaftlarida shamol eroziyasiga qarshi kurashishda landshaftlarning birbutunligi, ularning biriga inson ta'sir ko'rsatsa, bevosita ikkinchi komponenti ham o'zgarishini unutmaslik kerak, ya'ni shamol eroziyasiga qarshi kurashish va buning oldini olishda masalaga majmuali yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun eng avvalo bu maskanga kirib keladigan shamollar yo'nalishini va bu shamollarni to'sib qoladigan ixotazorlar, ya'ni “yashil belbog” larni barpo qilish kerak bo'ladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham aynan bugungi kunda joylarda yashil maskan maydonlarini kengaytirishni keng targ'ib qilishi bejizga emas.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Muhammadjonov, Qadimgi Buxoro.
2. A.Temirov, Vardonze hayrati
3. I.Q.Nazarov, I.Sh.Allayorov, Buxoro geografiyasi
4. A.Rafiqov, Geoekologik muammolar.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000